



**Nogironligi bo'lgan Amerikaliklar to'g'risidagi qonunga
muvofig veb-saytlarga kirish imkoniyati**

Ro'zimboyeva Kumushoy

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Xususiy huquq fakulteti, 3-bosqich talabasi
E-mail: rozimboyevakumush34@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada Amerika davlati timsolida nogironligi bo'lgan shaxslarning onlayn tarmoqlar va platformalardan foydalanishdagi imoniyatlari, huquqlari va ularning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Shuningdek, "Nogironligi bo'lgan Amerikaliklar to'g'risidagi qonun (ADA-Americans with Disabilities Act) ham atroflicha tahlil etilib, uning foydali tomonlari o'rganib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Onlayn xarid, raqamli platforma, veb-saytlarga kirish erkinligi, shaxsiy huquqlar, ayrim nuqsonli shaxslar, onlayn hukumat, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy xizmatlar.

Abstract: This article will show the capabilities, rights and importance of persons with disabilities in the use of online networks and platforms in the image of the American state. Also, "ADA-(Americans with Disabilities Act) is analyzed in detail to examine its benefits.

Key words: online shopping, digital platform, freedom of access to websites, personal rights, defective persons, online government, public organizations, social services.



Kirish

Veb-saytlar. Bugungi raqamlashtirish avj olgan dunyoda veb-saytlar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Dastavval, veb-saytlar nima ekanligiga to'xtalib o'tamiz. Veb-saytlar internet tarmoqlarida joylashgan onlayn saytlar hisoblanib, ular orqali turli xildagi xizmatlar va ma'lumotlarga oson va qulay tarzda ega bo'lish mumkin. Onlayn xaridlardan tortib boshqa turdagi muhim bo'lgan xizmatlarga ham veb-saytlar insoniyatga ma'lumotlarga oson ega bo'lish va bir-biri bilan bog'lanishda katta xizmat ko'rsatib kelmoqda. Ijtimoiy hayotda veb-saytlarning ahamiyatiga keladigan bo'lsak, birinchidan veb-saytlar insonlar uchun ma'lumot olishning eng samarali usullaridan biridir. Internet orqali turli axborotlarni topish, ularni o'rganish va tahlil qilish orqali insonlar o'z bilimlarini oshirishi mumkin. Ikkinchidan, veb-saytlar insonlar orasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan savollarga oson va tez javob bera oladi. Undagi ma'lumotlar bazasi anchagina keng bo'lib, bir vaqtning o'zida dunyo axborotlari va yangiliklaridan xabardor bo'lib turish ham mumkin. Uchinchidan, veb-saytlarni faqatgina ma'lumot yig'ish yoki avborot olish uchun emas, balki undagi mavjud xizmatlardan ham foydalanish mumkin. Masalan, veb-saytlar orqali insonlar onlayn xaridlarni amalga oshirishlari mumkin. Ammo, afsuski, hamma insonlar ham veb-saytlardan birdek oson foydalanish imkoniyatiga ega emas. Ya'ni dunyoda shunday toifa insonlar borki, ular o'zlaridagi ba'zi nuqsonlar yoki nogironlik tufayli raqamli platformalardan boshqalar kabi oddiy usullar orqali foydalana olmaydilar. Ular ko'r yoki ko'rish qobiliyati past, kar yoki eshitish qobiliyati zaif, harakatlanish sikli cheklangan insonlar bo'lishi mumkin. Ammo bu nuqsonlar ularda ijtimoiy hayotda huquq va erkinliklar borasida cheklov o'rnatishga sabab bo'lmaydi. Jamoat tashkilotlarining yoki birlashma, korxonalarining har ikkala onlayn yoki oflayn xizmatlaridan foydalanishda ular ham boshqa sog'lom insonlar bilan bir xil huquq va imoniyatlarning egasi hisoblanadilar. Shuning uchun ham onlayn veb-saytlardan



foydalanishda bu toifadagi insonlarga ayrim yengilliklar berish ularning jamiyatdagi bu borada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan cheklovlariga barham beradi.

Internet, ijtimoiy tarmoqlar yoki umuman onlayn makon tarixiga nazar soladigan bo'lsak, veb-saytlardan foydalanish ko'pincha ayrim nuqsoni yoki nogironligi bo'lgan shaxslarga biroz qiyinchiliklar tug'dirar edi. Chunki bu davrda onlayn platformalar ko'proq soda usulda yaratilib, unda ayrim nuqsoni bor shaxslar foydalanganda ayrim qiyinchiliklarga duch kelar edilar. Bu esa garchi ochiq ravishda e'lon qilinmasada, ularning o'z huquqlaridan foydalanishlari boshqalarnikiga nisbatan ta'minlanmaganlik hissini uyg'otar edi. Jamiyatda huquqlar va imkoniyatlar erkinligi borasidagi bu nomutanosibliklar davlat hukumatlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklar edi. Dastlab ushbu bo'shliqlar va nomutanosibliklarni bartaraf etishga dunyoda birinchilardan bo'lib Amerika hukumati urinib ko'rdi. Ya'ni Amerikada 1990-yilning o'zidayoq nogironligi bo'lgan aholi qatlamlari uchun alohida qonunning ishlab chiqilishi yuqoridagi fikrimiz dailidir. Ushbu qonun "Nogironligi bo'lgan Amerikaliklar to'g'risida qonun" (ADA-Americans with Disabilities Act) deb nomlanadi. Qonun nogironligi bo'lgan amerikalik fuqarolarga veb-saytlardan qulay usulda foydalanishga imkon beruvchi fuqarolik huquqlari va boshqa turdagi ijtimoiy huquqlarni qamrab oladi. Jumladan, ushbu qonunni bandlik, transport, online savdo, umuman olganda "Jamoat maskanlari" deb hisoblangan ko'pgina sohalarga targ'ib qilish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari ADA vakolatiga kiruvchi online platformalar doirasiga elektron tijorat saytlari, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash provayderlari va hatto davlat idoralari kabi jamoatchilikka tovarlar va xizmatlar taklif qiluvchi va xususiy tashkilotlar tomonidan boshqariladigan veb-saytlarni ham kiritish mumkin. 2010-yilda kelib AQSH Adliya vazirligi ADA (Americans with Disabilities Act) ni barcha turdagi davlat tashkilotlari va xususiy biznes korxonalari uchun tegishli ekanligini e'lon qiladi. Bu esa ular tomonidan yaratilgan barcha onlayn platformalar hamma uchun birdek ochiq bo'lishi kerakligini anglatadi.



ADA: veb-saytlarga kirishning ahamiyati

Birinchidan, ADA talablariga rioya qilgan holda veb-saytlarni ishlatish nogironligi bo'lgan shaxslarga boshqa foydalanuvchilar bilan teng ravishda xizmatlar va onlayn tarmqolardan foydalanish imkonini beradi. Bu esa ayrim nuqsoni bo'lgan shaxslarni turli xildagi onlayn platformalardan foydalanishdagi cheklovlarini bartaraf etib, barchaga onlayn makonda tenglik qoidasini o'rnatadi.

Ikkinchidan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining 15% ga yaqinini nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil etadi. Bu foiz ko'rsatkichining yildan-yilga oshib borgani sari bu toifadagi shaxslarga ham onlayn veb-saytlardan foydalanish imkoniyatining yaratilishi har ikki taraf uchun ham bir qancha afzalliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, Onlayn platforma mualliflari uchun bu veb-saytlardan foydalanuvchilar soni ko'payishiga sabab bo'lib, bu esa ularga foyda bo'lib xizmat qiladi va kengaytirilgan mijozlar bazasiga ega bo'lishga imkon beradi.

Uchinchidan, ADA talablariga rioya qilingan holda foydalanuvchilarga sog'lom ekanliklaridan qat'iy nazar veb-saytlarga kirish va foydalanish imkoniyati- korxonalar va ijtimoiy xizmat ko'rsatish platformalari uchun ham davlat oldidagi mas'uliyat, ham qonun talab qiladigan majburiyat hamdir. Korxona va tashkilotlar ADA talablarini buzmagani holda o'z faoliyatlarini olib borishlari kerak. Aks holda bu ular uchun qonuniy javobgarlikka sabab bo'lish bilan birga, korxonaning mavgeiga putur yetkazishi va doimiy potensial mijozlarni yo'qotish kabi salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Nogironligi bo'lgan Amerikaliklar to'g'risidagi qonunning veb-saytlar borasidagi talablari

ADA o'z veb-saytiga ega bo'lgan tarmoq egalariga bir qancha talablarni qo'yadi. Bu talablar veb-saytlar uchun majburiy tusga ega bo'lib, ularga rioya qilmaslik tashkilot egalari uchun salbiy oqibatlar bilan yakunlanishi mumkin. Quyida Amerika Milliy qonunlar sharhi



(National Law Review) bergan ADA (Americans with Disabilities Act) borasidagi ko'rsatmalar bilan tanishib chiqamiz.

- Birinchidan kontentlar barcha foydalanuvchilar ochiq va birdek bo'lishi kerak. Ya'ni kontent ichidagi ma'lumotlar o'zida matnlardan iborat bo'lishlikni talab etadi. Chunki boshqa turdagi rasm yoki video ko'rinishidagi kontentlar hamma uchun oson foydalanish yo'li emas. Ayrim nuqsoni bor kishilar grafika ko'rinishidagi tasvirlarni ko'rish imkoniyatiga ega emas. Bunday platformalarda tasvir ko'rinishidagi ma'lumotlarni onlayn tarjima qilish yoki ularga yetkazib berishning ham imkoni yo'q. Shu sabali ham agar ma'lumotlar matn ko'rinishida joylangan bo'lsa, ularni barcha toifadagi kishilarga yetkazib berishning imkoni mavjud bo'ladi.
- Shunday turdagi ommaviy axborot vositalari mavjudki, ular tomonidan berilayotgan kontentlarni audio va video tasvirlarsiz tasavvvur etish qiyin. Bu turdagi xizmat ko'rsatuvchilar video va audio tasvir ko'rinishlaridagi kontentlarni o'z alternativlari bilan yaratishi kerak bo'ladi. Chunki bu toifa kontentlar kar yoki eshitish qobiliyati past bo'lgan insonlar uchun mos kelmasligi mumkin. Alternativlarga misol qilib imo- ishora yordamchilari, matndagi taglavhalar yoki audio formatlarni keltirish mumkin. Bu turdagi alternativlar ko'zi ojiz bo'lgan ayrim nuqsoni kishilarga ham bir qancha yengilliklar tug'diradi.
- Saytlar bo'ylab harakatlanish insonlarning hissiyotlariga yoki ortiqcha sezgilariga ta'sir qilmagan holda amalga oshirilishi kerak. Ya'ni kontentlar bilan bo'g'liq ma'lumotlardan foydalanish, ularni ko'rish va tushunish qandaydir ranglar algoritmi yoki shakllar tuzilishiga bog'liq bo'lmagan holda bo'lishi talab etiladi. Agar kontentlar shu turdagi alternativlarga ega bo'lishni talab etsa, ularga muqobil ravishda alternativlarni ham joylashtirish kerak bo'ladi.



- Saytlardan foydalanishda ular hamma uchun tushunarli va undagi kontentlarni tushunish uchun ortqicha harakatlar yoki aqliy urinishlarni talab etmasligi kerak. Bu o'rnatilgan qat'iy talab hisoblanib, saytning dizayniga va arxitekturasiga ham targ'ib etiladi.
- Matnli kontentlar o'qish uchun qulay tarzda ifoda etilishi kerak. Uning shrift, dizayni, undagi ranglar va boshqa shu turdagi belgilar ortiqcha bezak va naqshlardan holi bo'lishi kerak. Aks holda bu sifatlar matnni o'qishda ba'zi qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.
- Veb-saytlardagi kontentlarni tushunishda yoki undagi ma'lumotlardan foydalanishda ba'zi odamlar duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar yoki kutiladigan qiyinchiliklar oldindan hisobga olingan holda yaratilishi kerakligi onlayn platformalarda zaruriy qoidalardan biri hisoblanadi.
- Veb-saytlarga kirish va undan foydalanish faqat klaviatura, sichqoncha yoki sensorli ekran bilan cheklanmasligi kerak. Undan foydalanishda va boshqarishda boshqa turdagi yordamchi qurilmalarni ishlatish imkoniyati mavjud bo'lishi maqsadga muvofiqdir.
- Veb-saytlar ulardan foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni oldini oladigan yoki ogohlantiradigan tarzda yaratilgan bo'lishi kerak. Masalan, foydalanuvchi veb-saytlarda biror turdagi arizani to'ldirayotganda undan telefon

raqam yoki shu turdagi raqam formatda boshqa ma'lumotlar talab etilganda u boshqa formatdan foydalanishi kerak bo'ladi. Agar u buni bilmasa, veb-saytlar uni biror ko'rinishda oldindan ogohlantirishi kerak bo'ladi.

Umuman olganda, Amerika Qo'shma shtatlarida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun onlayn platformalarga kirish imkoniyati ikkita norma bilan tartibga solinadi. Bular:

- Nogironligi bo'lgan shaxslar to'g'risida qonun- ADA (Americans with Disabilities Act)
- Reabilitatsiya to'g'risidani qonunning 508-moddasi (Section 508 of the Rehabilitation Act)



Bu ikki qonunning nogironligi yoki ayrim nuqsoni bor bo'lgan shaxslar uchun ahamiyati katta hisoblanib ular bir vaqtning o'zida bir-birini to'ldirib turadi va nogiron shaxslarning onlayn platformalardan foydalanishdagi hquqularining boshqa sog'lom kishilar bilan teng ekanligini amalda isbotlab beradi. Nogironligi bo'lgan shaxslar to'g'risidagi qonun (ADA) jamoat joylari (public station) deb e'lon etilgan xizmatlarning onlayn platformalarida kamsitishga chek qo'ysa, Reabilitatsiya to'g'risidagi qonunning 508-moddasi federal idoralardan o'zlarining onlayn platformalarini va elektron texnologiyalarini nogironligi bo'lgan shaxslar uchun birdek ochiq bo'lishini ta'minlaydi. Amerikada xususiy biznes sohasiga keladigan bo'lsak, ular uchun onlayn platformalarga kirish tartibini belgilovchi aniq norma mavjud emas. Ammo Amerika Adliya vazirligi DOJ – (Department of Justice) veb-saytlarning nogironligi bo'lgan shaxslar uchun bir xilda ochiq va foydalanish imkoniyatlari cheklanmagan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu tartib xususiy biznes egalari va nogironligi bo'lgan shaxslar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammo va nizolarni hal etishga yordam beruvchi tayanch vazifasini o'taydi. Bundan tashqari Amerikaning boshqa ba'zi shtatlarida ham veb-saytlarga kirish va foydalanishga oid qonun normalari mavjud. Misol tariqasida Kaliforniyaning Fuqarolik to'g'risidagi Unruh qonuni (California's Unruh civil Rights Act) va Kliforniya nogironligi bo'lgan shaxslar to'g'risidagi qonun (California Disabled persons Act) larni keltirish mumkin. Bu qonunlar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun onlayn platformalarga kirish erkinligini ta'minlashga yordam beradi.

ADA (Americans with Disabilities Act) talablarini buzganlik oqibati

ADA-Nogironligi bo'lgan Amerikaliklar to'g'risidagi qonun jamiyatning ko'plab sohalarida majburiylik tusiga ega deb e'lon qilingan. Bu qonun ko'proq Amerikada “Jamoat joylari” deb e'lon qilingan hududlarga talluqli ekanligini ham aytib o'tish joiz. Bu turdagi jamoat joylariga mison tariqasida ta'lim, transportatsiya, bandlik, xususiy biznes, davlat xizmat ko'rsatish markazlarini keltirish mumkin. ADA-Nogironligi bo'lgan



Amerikaliklar to'g'risidagi qonun talablarini buzganlik oqibatlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, birinchi galda onlayn platformalarning ADA qoidalariga moslik darajasini aniqlab olish zaruriy talab hisoblanadi. Ushbu qonun doirada faoliyat yurituvchi va Amerika Adliya vazirligi tizimida ishlaydigan komissiya va tuzilmalar ADA talablarining jamiyatda qay darajada ijro etilyotganini aniqlovchi tuzilmalar hisoblanadi. Ular o'z vakolatlari doirasida turli xildagi loyihalar yaratib boradi. Bu loyihalarga "ADA Compliance Chekcer", "ADA National Network", "ADA Audio Conference Series" kabilar kiradi. "ADA Audio Conference" loyihasi foydalanuvchilar bilan onlayn fonferensiyalar bo'ylab ham hamkorlikni amalga oshiradi va ularning ko'plab savollariga javob beradi. "ADA National network" loyihasi esa nogironligi bo'lgan ayrim shaxslarga maslahatlar, ko'rsatma va ta'lim berib boradi va ularni ADA qoidalar bilan tanishtirib chiqadi. "ADA Compliance Checker" nomli loyiha esa veb-saytlar uchun o'rnatilgan qoidalarining muvofiqlik darajasini o'rganadi. Bu orqali ADA internet veb-saytlardan foydalanuvchi shaxslarga bir qancha qulayliklarni yaratadi..

Agar davlat xizmat ko'rsatish markazlari, jamoat tashkilotlari yoki xususiy biznes egalari onlayn platformalar orqali aholiga xizmat ko'rsatishda ADA (Americans with Disabilities Act) ya'ni Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun talab doirasida qulayliklar yaratilmasa, bu ular uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, davlat xizmat ko'rsatish markazlari yoki xususiy biznes egalarining mamalakatda nufuzi pasayib ketishi kutilgan zararlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari agar shunday platformalar uchun aholining nogironligi yoki ayrim nuqsoni bor shaxslardan shikoyat kelib tushadigan bo'lsa, sudlarda ishlar imkon qadar aholi foydasiga ishni hal qilingan tarzda ko'rib chiqiladi. Natijada esa sud yakuni onlayn platforma egalarining katta miqdorda jarima to'lashi talab etilgan hukm bilan yakunlanishi mumkin. Shu kabi oqibatlarni hisobga olgan holda Amerikada jamoat tashkilotlari, davlat xizmat ko'rsatish vakillari yoki xususiy biznes



egalari o'z veb-saytlarining ADA talablariga moslik darajasini hisobga olgan holda faoliyat yuritishlari kerak bo'ladi

Yuqorida keltirilgan talablar veb-saytlarga kirishda barcha uchun bir xil sharoitlar yaratadi. Veb-saytlardan foydalanish jarayonida oldindan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nogironligi yoki ayrim nuqsoni bor shaxslar bilan bog'liq muammolarni ma'lum darajada hal etishga imkon berib, ularning onlayn platformalardan foydalanishda teng va boshqalar kabi bir xil huquqlarga ega ekanliklarini his qilishga yordam beardi. Bu esa jahon davlatlari e'lon qilgan tinchlik, tenglik va erkinlik, diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmasligi kabi prinsiplarning Amerika hukumati siyosatga barqaror targ'ib qilayotganini anglatadi. Bu siyosat Amerika hukumati tomonidan taklif etilgan va ishlab chiqilgan ADA Nogironligi bo'lgan shaxslar to'g'risidagi qonunning ahamiyatini katta ekanligini ifoda etib, bu turdagi imkoniyatni butun dunyo hukumatlari shu bilan birga bizning Milliy Hukumatimiz ham o'z qonunchiligimizga targ'ib qilishi kerak ekanligini anglatadi. Zero, har qanday jamoat yoki davlat tashkilotiga tashrif buyurgan shaxs nogironligi yoki ayrim nuqsoni tufayli chetlatilmaganidek, bunday shaxslar onlayn makonda ham boshqalar kabi teng imkoniyatga ega bo'lishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Nogironligi bo'lgan Amerikaliklar to'g'risida qonun" (ADA-Americans with Disabilities Act) -1990-yil.
2. Audrey Mross, Partner at Munck Wilson Mandala LLP "Abrief overview regarding the ADA & Website Accessibility.